

INTERVYU OLIHDA JURNALIST MAHORATI

Shonazarova Dilfuza O'zMU tadqiqotchisi

Annotasiya.

Ushbu maqolada bugungi kunda intervyu janrining o'ziga xos xususiyatlari xususida so'z boradi. Shu jumladan, intervyu olishda jurnalist mahorati ilmiy va bosma nashrlarda chop etilgan maqolalar xususida tahlil qilinib, mavjud muammolar yuzasidan tegishli taklif va tavsiyalar keltiriladi.

Kalit so'zlar: *Intervyu, jurnalist mahorati, bosma nashrlar, intervyu yetakchi janr.*

Abstract.

This article talks about the specific features of the interview genre today. In particular, journalistic skills in interviewing are analyzed in terms of articles published in scientific and printed publications, and appropriate suggestions and recommendations are made regarding existing problems.

Key words: *Interview, journalistic skills, printed publications, interview leading genre.*

KIRISH

Intervyu matnini yozish respondent bilan suhbatlashishda savol tuzishdan ham qiyinroq.

Intervyuning yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, uning matnida muallifning emas, suhbatdoshning nuqtai nazari yetakchilik qiladi. Bu esa intervyuda jurnalistning ovozi eshitilmasligidan dalolat beradi. Chunki, birinchidan, intervyu borishining o'zi jurnalist tomonidan (intervyuning tuzilishi, mazmuni muallifning qat'iy ko'rsatmalariga, vazifalariga qarab belgilanadi) yo'naltiriladi. Ikkinchidan, intervyuda muhokama qilinayotgan mavzu doirasida suhbatdoshning nuqtai nazari, qarashlari, taxminlari (ba'zan bevosita, ba'zan bilvosita) jurnalistning yondashuviga mos kelmay qolishi mumkin. Intervyuda jurnalist mahorati shunda belgilanadiki, auditoriya muallif bilan suhbatdosh qarashlarining mos kelishini aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Intervyuning bir necha shakllari bo'lishiga qaramay, bu rang-baranglik mavjudligi nuqtai nazaridan ikki muhim vazifani amalga oshirishga qaratiladi. Bular muhokama qilinayotgan masala yuzasidan suhbatdoshning nuqtai nazarini, qarashini aniqlash hamda suhbatdosh haqida hikoya qilish orqali uning psixologik portretini yaratishdir. Shu ma'noda intervyuning janr sifatidagi muhim belgisi bayon etishni sub'yektivlashtirishdir. Intervyu matni suhbatdosh aytganlari, fikrlashining o'ziga

xosligini ko'rsatuvchi jonli nutqidir. Ana shu o'ziga xoslikni ilib olish va qayd qilish jurnalist uchun muhim hisoblanadi. Suhbatdoshning gaplari hozirgina bo'lgan hodisaga nisbatan tezkor munosabat sifatida (ekspres-intervyu, mikrointervyu) qayd etilishi ham mumkin. Ammo shu bilan birga, oldindan shakllantirilgan va suhbatdoshga berilgan savollar asosiga qurilgan to'ng'ulgan monolog ham bo'lishi mumkin. Bu yana ikki tomonni birday tashvishga solgan hodisa, suhbat ishtirokchilarining vaziyatlar haqida teng huquqda ishtiroklarini o'zida ifoda etgan dialog-suhbat bo'lishi ham mumkin. Biz «O'zbekiston adabiyoti va san'ati», «Kitob dunyosi» hamda «Literaturnaya gazeta»larida chop etilgan intervyular mualliflari ijodini o'rganganda, monolog-intervyularni deyarli uchratmadik. Ushbu gazetalardagi intervyular dialog xarakteriga ega. Aksariyat intervyularda jurnalistlar mo'ljalni intervyuning borishini aks ettiruvchi yakuniy matnga va materialni adabiy-badiiy jihatdan to'g'ri tashkillashtirishga harakat qilishadi.

Intervyu matni ko'p hollarda (bo'lib o'tgan) voqea-hodisa xususida sharhning o'ziga xos ko'rinishini namoyon etadi. Unda faqat faktlar emas, balki unga bo'lgan munosabatlar ham muhim o'rin tutadi. Eng asosiysi, intervyuda o'quvchidan o'z hayotiga nisbatan javobgar bo'lishi, axloqiy me'yorlar talablarini har bir suhbatdoshning o'ziga xos ichki dunyosini hisobga olishni talab etadi.

NATIJARLAR

«O'zbekiston adabiyoti va san'ati», «LG» hamda «Kitob dunyosi» gazetasida chop etilgan intervyularni tahlil qilar ekanmiz, avvalo, bir muhim jihatni ta'kidlashni xohlar edik, u ham bo'lsa aksariyat, ayniqsa katta ish tajribasiga ega jurnalistlarning ushbu masalada o'z pozitsiyalari borligidir. Ayniqsa, bu borada G. Umarova, Sh. Sattorov, Go'zalbegim, Jamoliddin Muslim, I. Panin, V. Shemshuchenko ijodiy imkoniyatlari ancha keng. Shular qatorida «Kitob dunyosi» gazetasida bosilgan Jamoliddin Muslimning yozuvchi Dadaxon Nuriy bilan qilgan intervyusida muallif sifatida uning pozitsiyasi yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu intervyuga to'xtalib o'tamiz. Garchand muallif birinchi savolni oddiy bergan, shunchaki suhbatdoshini «mashq qildirgan» bo'lsa-da, ikkinchi savolni jiddiy qo'yadi va bu bilan suhbatdoshining qarashlarini bir nuqtaga qarata oladi.

«– Ya'ni, o'smirlilik hayotidan olib yozilgan ilk «Oqshom qo'shiqlari» nomli lirik qissangizni o'sha davrning navqiron avlodi bo'lgan adabiyot muxlislari hali ham eslab turishadi. Hatto Rauf Parfi «Yozmalar»ida «Oltmish uchinchi yillarning qish-qirovli kunlaridan birida «Oqshom qo'shiqlari»ni o'qib, bag'rimizga bahor shabadalari ufurgandek quvongandik», degan ekan. O'sha asaringiz haqida hozir fikringiz qanday?»

– O‘ta salbiy. «Oqshom qo‘shiq-lari»ning saqlanib qolgan yagona nusxasini qo‘limga olib, ko‘z yugurtirsam, uyalib ketaman. U davrlarda tasavvurimiz shu qadar jo‘n ekanmi, yoki ishqiy asarlarga tashnalik sezilganmi, har holda shu qissadan keyingi «Bog‘larda bahor» ham o‘ta siyqa yozilganga o‘xshab ko‘rinadi, nazarimda.» [1.B,9]

Muallif javobdan qoniqmaydi. Ya‘ni, Dadaxon Nuriyning e‘tirozini shunchaki qabul qilib qo‘ya qolmaydi. Bu javob uning uchun «ko‘ngil to‘ladi» yoki «to‘lmaydi» degan oddiy javobdek tuyuladi. Shuning uchun keyingi savolini qisqa qilib, «Begonachi?» deb so‘raydi. Shu birgina so‘zning o‘zi suhbatdoshda «bu yigit, mening har bir asarimdan xabardor shekilli» degan fikrni uyg‘otishi mumkin. Dadaxon Nuriy shunday javob beradi:

«– Shuni Abdulla Qahhorday qattiqqo‘l odam o‘qib ko‘rib, «Durust. Chaqaloq tug‘ilibdi, endi uni yuvib-tarab, yo‘rgaklaymiz», deganidan so‘ng, menda yozishni davom ettirishga ishonch uyg‘ongan.

– *Avval ikkilanarmidingiz?»* [2.B,6]

MUHOKAMALAR

Jamoliddin Muslimning yozuvchi Dadaxon Nuriy bilan qilgan intervyusi juda qiziqarli chiqqanidan tashqari, uning shaxsi bilan bog‘liq yangi ma‘lumotlardan o‘quvchilarni boxabar qiladi. Nazarimizda, yozuvchining rasm chizishi, Hindiston bosh vaziriga portretini sovg‘a qilganligi, musiqaga qiziqishi bilan bog‘liq faktlar ko‘pchilikka yangilik bo‘lgan bo‘lsa kerak. Bu muallifning intervyu jarayonini to‘g‘ri boshqargani va o‘z pozitsiyasida sobit turganining hosilasidir. Intervyu matni katta, shunga qaramay, o‘quvchini o‘ziga tortadi. Odatda, yaxshi intervyular yengil savol bilan tugallanadi. Bu intervyuda shuni kuzatish mumkin. Ya‘ni, jurnalist suhbatdoshidan «Hozir ham suratlar chizib, musiqa bilan shug‘ullanib turasizmi?» deb so‘raydi. Bu bilan u suhbatdoshi agar jiddiy o‘tirgan holatda bo‘lsa, uning erkinligini ta‘minlashni o‘ylagan, yoki shu orqali iliq kayfiyatni paydo qilib, jarayonga yakun yasagan.

Amaliy jurnalistikada, aniqrog‘i, gazetalarda chop etilgan intervyularda jurnalist o‘quvchiga ta‘sir etishi uchun qiziqarli savol-javoblarga katta e‘tibor qaratadi. Eng yaxshi ta‘sir qilish usuli suhbatdoshlarning tabiiyligi va samimiyligida, degan qarash ustuvorday, nazarimizda. Chunki na savolning murakkabligi va na javobning o‘ta uzunligi muhim emas, asosiy masala suhbat jarayonida ko‘tarilgan mavzu va intervyu ishtirokchilarining u bilan bog‘liq qarashlari orasidagi muvozanatning bir-biriga mos kelishi ifodasiga qaratiladi. Buni Shuhrat Sattorov bilan Paulo Koelo intervyusida kuzatish mumkin.

«– *Sharq mutafakkiri Jaloliddin Rumiyning*

«Narsa yo‘qkim, xorijiy olam erur,

Har ne istarsan – o‘zingda jam erur»,

singari O‘zlikni topish va barcha hikmatu xazinalar shu O‘zlikda mujassam bo‘lishini ta’kidlovchi satrlar olis Braziliya zaminida ulg‘aygan adibning romaniy tafakkurida bir necha asrlardan keyin takrorlangandek go‘yo.

– Lotin Amerikasida «braziliyalik Rumiylar» degan laqabim borligini menga ko‘p aytishgan. Balki buni bilarsiz. Bundan faxrlanaman. Sharq adabiyotiga kelsak, ochig‘i chuqur tanish emasman. Ammo sharqona falsafadagi nekbinlik menga begona ham emas. Ijodiy takror haqidagi gapingiz esa noto‘g‘ri, buni ta’sirlanish, ilhomlanish desak to‘g‘ri bo‘ladi. Rumiyni ko‘p o‘qiymen, undan ko‘p narsa topaman. Har bir yozuvchida harakat bo‘lishi kerak. Hech bo‘lmaganda zohiran»[3.B,4].

Ushbu suhbatda jurnalist va intervyu beruvchi o‘rtasida kechgan ma’rifiy muloqotning ijtimoiy yuki katta bo‘lganligi bois ham auditoriyaga ko‘rsatadigan ta’siri kuchli chiqqan. Paulo Koelo savollarga javob berish asnosida o‘zining ichki «men»ini namoyon qila olgan. Yuragining tubidagini tiliga chiqara olgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda aslida fikrlar to‘qnashuvi, e’tirozlar va e’tiroflar oqibatida jurnalist va uning qahramoni o‘rtasida fikriy yaqinlik yuzaga keladi. Bunga har doim ham erishib bo‘lmaydi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, intervyu qonuniyatiga ko‘ra, jurnalist suhbatdoshining qanday savol kutishini yoki qanday javob berishini istashini bilish bilan birga, o‘zi ham suhbatdoshidan nima istaydi, qanday tarzda javob berishini aniq bilib olishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. «Китоб дунёси» //2014 йил, 11 июнь, 11-сон.
2. «Китоб дунёси»// 2014 йил, 12 февраль 3-сон.
3. Шарков Ф. Основы теории коммуникации. https://iub.at.ua/_ld/0/61.pdf